

2/2024,  
mart-  
aprel  
(№ 00070)



## **TADBIRKORLARNING BARQARORLIK REYTINGINI JORIY QILISH ORQALI SOLIQ RISKLARINI BOSHQARISH BILAN YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH**

**Davranov Iskandar Jumayevich**

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi.*

<https://orcid.org/0009-0002-6800-7105>

[iskandar\\_davr@mail.com](mailto:iskandar_davr@mail.com)

**DOI:** [https://doi.org/10.55439/EIT/vol12\\_iss2/a33](https://doi.org/10.55439/EIT/vol12_iss2/a33)

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada tadbirkorlarning barqarorlik reytingini joriy qilish orqali soliq risklarini boshqarish bilan yashirin iqtisodiyotni qisqartirish yo'llari tadqiq etilgan. Shuningdek, soliq risklarini boshqarishning yashirin iqtisodiyotga ta'siri o'rganilgan. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini baholashning 23 ta mezonini amaliyotga joriy qilinishining samaradorligi yoritilgan. Yuqorida qayd etilgan holatlardan kelib chiqib, mamlakatimizda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish orqali yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish borasida takliflar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** Soliq organi, soliq to'lovchilar, risklarni boshqarish, yashirin iqtisodiyot, soliq xavflarini kompleks boshqarish, soliq nazorati, tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi, mezon, elektron platforma.

### **СОКРАЩЕНИЕ ТЕНЕВОЙ ЭКОНОМИКИ ЧЕРЕЗ УПРАВЛЕНИЕ НАЛОГОВЫМИ РИСКАМИ ПУТЁМ ВВЕДЕНИЯ РЕЙТИНГА УСТОЙЧИВОСТИ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ**

**Davranov Iskandar Jumayevich**

*Независимый исследователь Ташкентского международного университета Кимё.*

### **Аннотация**

В данной статье исследуются пути снижения теневой экономики через управления налоговыми рисками путем введения рейтинга устойчивости предпринимателей. Также изучается влияние управления налоговыми рисками на теневую экономику. Выделена эффективность реализации 23 критериев оценки деятельности субъектов предпринимательства. Исходя из вышеизложенного, сформированы предложения по снижению уровня теневой экономики путем совершенствования налогового администрирования в нашей стране.

**Ключевые слова:** Налоговый орган, налогоплательщики, управление рисками, теневая экономика, комплексное управление налоговыми рисками, налоговый контроль, рейтинг устойчивости субъектов предпринимательства, критерий, электронная площадка.

### **REDUCING THE SHADOW ECONOMY THROUGH TAX RISK MANAGEMENT BY INTRODUCING A SUSTAINABILITY RATING FOR ENTREPRENEURS**

**Davranov Iskandar Jumayevich**

*Independent researcher of Kimyo international university in Tashkent.*

## **Abstract**

This article explores ways to reduce the shadow economy through tax risk management by introducing a sustainability rating for entrepreneurs. The impact of tax risk management on the shadow economy is also being studied. The effectiveness of the implementation of 23 criteria for assessing the activities of business entities was highlighted. Based on the above, proposals have been formed to reduce the level of the shadow economy by improving tax administration in our country.

**Key words:** Tax authority, taxpayers, risk management, shadow economy, comprehensive management of tax risks, tax control, rating of sustainability of entities of entrepreneurship, criterion, electronic platform.

## **Kirish**

Zavod ishchisi tungi vaqtda litsenziyasiz taksi haydashning ikkinchi ishi bor, chilangar mijozga buzilgan suv quvurini tuzatadi, naqd pul oladi, lekin daromadi yuzasidan soliq organiga ixtiyoriy deklaratsiya taqdim qilmaydi, giyohvand moddalar sotuvchisi ko'chani bir burchagida bo'lajak mijoz bilan savdo-sotiq bilan shug'ullanadi. Bularning barchasi yashirin yoki yashirin iqtisodiyotga misol bo'lib, soliq organlari va davlatning tegishli organlaridan chetda qoladigan qonuniy va noqonuniy faoliyatlar yiliga trillionlab dollarlarni tashkil etadi.

Garchi jinoyatchilik va yashirin iqtisodiy faoliyat uzoq vaqtdan beri hayot haqiqatiga aylangan va hozirda butun dunyo bo'ylab kuchayib borayotgan bo'lsada, deyarli barcha jamiyatlar jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligi sababli ularning o'sishini nazorat qilishga harakat qiladilar.

Bu borada mamlakatimizda yashirin iqtisodiyotni jilovlash uchun soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar muhim hisoblanadi. Zero ushbu masala hukumat darajasida dolzarb bo'lganligi bois 2024-yil 16-yanvarda O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish sohasida davlat nazorati mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni qabul qilindi [1].

Farmon bilan yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish borasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari etib yashirin iqtisodiyot ko'lamini keskin qisqartirish orqali mamlakatda sog'lom raqobat va xususiy biznesni rivojlantirish, yashirin iqtisodiyot shakllanishining turli sxemalari, xufiyona ishlab chiqarish va noqonuniy moliyaviy oqimlarga barham berish orqali iqtisodiy barqarorlikni va aholi farovonligini ta'minlash, iqtisodiyotdagi xufiyona aylanmalarga qarshi kurashuvchi davlat organlari faoliyatining aniq yo'nalishlarini belgilash orqali mas'uliyati va javobgarligini oshirish, keng jamoatchilikda yashirin iqtisodiyotga murosasizlik hissini shakllantirish belgilandi. Asosiy maqsad qilib qonunga itoatkor tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, yashirin iqtisodiyotni repressiv yo'l bilan emas, balki ularni rag'batlantirish mexanizmlari va amaliy ko'mak berish orqali ko'lamini kamaytirish, jazolov choralarni kuchaytirishdan voz kechgan holda insofli tadbirkorni himoya qilish, ularga haqiqiy ko'makchi bo'lish hamda biznes rivojiga to'siq bo'luvchi korrupsion omillarga barham berish hisoblanadi.

## **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili**

Mamlakatda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish orqali yashirin iqtisodiyotni jilovlash, vujudga kelish sabablarini o'rganish hamda uni qisqartirishning ayrim masalalari bir

qator xorijiy va mahalliy olimlar, hukumat vakillari tomonidan turli xil yondashuvlar ilgari surilgan holda o‘rganilgan hamda o‘rganish hukumat darajasida davom etmoqda.

Xususan, Soliq qo‘mitasi raisi Sh.Kudbiyev mamlakatimiz iqtisodiy barqarorligini ta‘minlash va aholi turmush farovonligini oshirish yo‘lida yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish, xususan, “shubhali” korxonalar faoliyatga chek qo‘yishda ortga yo‘l yo‘qligini va bu boradagi ishlar jadal davom ettirilishini qat‘iy ta‘kidlab o‘tgan [2].

Xususan, Xalqaro valyuta jamg‘armasi tomonidan yashirin iqtisodiyot norasmiy yoki parallel iqtisodiyot deb atalib, u nafaqat noqonuniy faoliyatni, balki pul yoki ayirboshlash operatsiyalari ko‘rinishidagi qonuniy tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishdan olingan biroq, hech qayerda qayd etilmagan daromadlarni ham o‘z ichiga oladi [3].

Mazkur masala bo‘yicha ilmiy tadqiqot olib borgan Shvetsiyalik iqtisodchi olim K.F.Becker tomonidan yashirin iqtisodiyotning o‘ziga xosligi, norasmiy iqtisodiyot – bozor iqtisodiyotining nazorat qilib bo‘lmaydigan qismi ekanligi ta‘kidlanib, qaysiki ular rag‘batlantirishning boshqa shakllariga asosan tovarlar ishlab chiqarishlari va xizmatlar ko‘rsatishlarini ma‘lum qilgan [4].

Rossiyalik olim A.K. Bekryashev tomonidan yashirin iqtisodiyotni o‘rganish, unga qarshi kurash choralari samaradorligini ta‘minlash, uni baholash va o‘lchashda uchta narsaga alohida e‘tibor qaratishni taklif etadi. Ya‘ni, global, makro va mikro darajada jihatlarini ochib berilishi lozimligi ko‘rsatiladi [5].

Shu bilan birgalikda, Rossiyalik tadqiqotchilar I.Demenenko va S.Ogorodnikovalar yashirin iqtisodiyotning rasmiy iqtisodiyotga ijobiy hamda salbiy ta‘sirini keltirib o‘tishgan (1-jadval) [6].

**1-jadval**

**Yashirin iqtisodiyotning rasmiy iqtisodiyotga ijobiy hamda salbiy ta‘sirlari**

T/R	Ijobiy ta‘sirlari	Salbiy ta‘sirlari
1.	Yashirin faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyati rasmiy faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga nisbatan samarali bo‘ladi	Raqobat muhitiga destruktiv ta‘sir qiladi, bozor mexanizmini deformatsiyalaydi
2.	Yashirin faoliyat yurituvchi tadbirkorlik subyektlari ixtiyorida qo‘shimcha daromadni shakllantiradi	Mamlakatning soliq tizimini deformatsiyalaydi shuningdek, davlat budjetiga yetarli darajada soliq tushumlarini tushishiga to‘sqinlik qiladi
3.	Yashirin faoliyatda yaratilgan qo‘shilgan qiymat to‘liq bo‘lmasada YAIMda aks etadi (YAIM ko‘rsatkichi o‘sadi)	Davlatning moliyaviy holatiga, pul-kredit tizimiga salbiy ta‘sir qiladi, davlat budjetini qisqartiradi
4.	Yashirin faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining bankrotlikka uchrashini oldini oladi	Iste‘molchilar huquqining buzilishiga sabab bo‘ladi, nazorat qilinmaydigan sifatsiz tovar (xizmat)lar miqdori oshadi
5.	Yashirin faoliyat jamiyatda ijtimoiy vaziyatni barqarorlashtiradi, boylar va kambag‘allar o‘rtasidagi ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatadi	Ijtimoiy-iqtisodiy sohada olib borilayotgan islohotlarga to‘sqinlik qiluvchi vosita bo‘ladi
6.	Yashirin faoliyat aholi daromad tengsizligini yumshatishga yordam beradi	Jamiyatda ijtimoiy holatning beqarorligiga hamda korrupsiyaning avj olishiga xizmat qiladi shuningdek, mamlakatning investitsion imidjiga putur yetkazib, xalqaro iqtisodiy munosabatlarga salbiy ta‘sir qiladi

O‘zbekistonlik olimlardan professorlar A.Vahobov, A.Jo‘rayevlar o‘zlarining “Soliqlar va soliqqa tortish” darsligida yashirin iqtisodiyotning ko‘rinishidan biri bo‘lgan soliqdan qochishning usullarining nazariy tahlillarini keltirib o‘tadi. Ular ta’kidlaydiki, “soliqqa oid qonunbuzilishlarning tipik ko‘rinishlaridan biri xo‘jalik subyektlari tomonidan tegishli ruxsatnomaga ega bo‘lmasdan, soliq inspeksiyalariga soliq hisobini, balans hisobotlarini topshirmasdan moliya-xo‘jalik faoliyatini yuritish hisoblanadi” [7]. Bundan tashqari soliqdan qochishning oddiy ko‘rinishlari sifatida keltirib o‘tadiki, unga ko‘ra, “amaliyotda yirik sanoat korxonalari tomonidan pul mablag‘larini sho‘ba korxonalari orqali noqonuniy tarzda o‘zlashtirish korxonasi o‘ziga tegishli pul mablag‘larining ma’lum qismini sho‘ba korxonasi hisob-raqamiga o‘tkazadi. O‘z navbatida, mazkur sho‘ba korxonasi pul mablag‘larini soxta shartnomalar orqali xorijiy davlatlarga o‘tkazib beradi yoki soxta kirim-chiqim hujjatlari orqali naqd pulga aylantiriladi va o‘zlashtiriladi” [8].

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy mushohada, statistik kuzatish, statistik grafiklardan foydalanilgan holda qiyosiy tahlil, ma’lumotlarni guruhlash, absrakt-mantiqiy fikrlash, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. Ushbu tadqiqot usullari soliq ma’muriyatchiligida tadbirkorlarning barqarorlik reytingini joriy qilish orqali soliq risklarini boshqarish bilan yashirin iqtisodiyotni qisqartirish bo‘yicha xulosa va takliflarni shakllantirishga xizmat qiladi.

### **Tahlil va natijalar**

Bugungi murakkab va doimiy rivojlanayotgan soliq landshaftida soliq tavakkalchiligini boshqarish barcha hajm va sohalardagi korxonalar uchun dolzarb muammoga aylandi. Soliq tavakkalchiligini birma-bir hal qilish orqali korxonalar qimmatli jarimalar, obro‘ga putur yetkazish va huquqiy muammolardan qochishlari mumkin, natijada moliyaviy barqarorlik va operatsion muvaffaqiyatga erishadilar. Xatarlarni boshqarish bo‘yicha to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan strategiya soliqqa tortishning murakkab tomonlarini yo‘lga qo‘yish uchun mustahkam asos yaratadi.

Risklarni boshqarish — bu biznes maqsadlari, loyihalari yoki aktivlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan potensial tahdidlar yoki noaniqliklarni aniqlaydigan, baholaydigan, birinchi o‘ringa qo‘yadigan va kamaytiradigan tizimli jarayon [9].

Tadbirkorlik faoliyatida xavf-xatarlarini bilish barqaror biznes-reja uchun juda muhimdir. Risklarni boshqarish salbiy ta’sirlarni minimallashtirish va potensial imkoniyatlardan foydalanish uchun asosli qarorlar qabul qilish uchun moliyaviy, operatsion, strategik va muvofiqlik bilan bog‘liq risklarni tahlil qiladi.

Korxonasi riskida soliq katta rol o‘ynaydi. Mamlakat bo‘ylab ko‘plab yurisdiksiyalarda bilvosita soliq qonunlari, qoidalari va muvofiqlik talablari doimiy ravishda o‘zgarib turadi. Ushbu o‘zgarishlarga rioya qilmaslik qo‘shimcha soliqlar hisoblashga va jarimalarga olib kelishi mumkin, bularning barchasi tadbirkorlik subyektlarining umumiy barqarorligiga ta’sir qiladi.

Shuni ta’kidlash joizki, soliq organlari tomonidan risklarni boshqarishda har bir deklaratsiyani, hammani ham auditdan o‘tkazishning iloji yo‘q. Shu sababli, soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish orqali soliq risklarini boshqarishda quyidagi savollar muhim hisoblanadi.

Risk aynan qayerda aniqlandi?

Ular qayerda to‘g‘ri tahlil qilinadi?

- To‘g‘ri “davolash usuli” tanlanganmi?
- Risk kamaydimi?
- Soliq organi uchun tashqi yordam kerakmi?
- Qonunchilikdagi o‘zgarishlar kerakmi?
- Axborot texnologiyalarga investitsiya kerakmi?

Shu o‘rinda soliq ma‘muriyatchiligida muvofiqlikni oshirish rejasini baholash lozim. Bunda natijalardan ko‘ra sabablarga ko‘proq e‘tibor berib, soliq to‘lovchining xatti-harakati o‘zgarganini kuzatish muhim. Vaqt o‘tishi bilan tendensiyalar to‘g‘ri yo‘nalishda harakatlanayotgani kuzatib, soliq to‘lovchilarda so‘rovnoma o‘tkazish, to‘g‘ri hisobot berish natijasiga audit natijalari pasayishini, ro‘yxatdan o‘tish darajasi oshishida o‘zgarish bo‘lgan yoki bo‘lmaganini, soliq bo‘shlig‘i kamayganligi tahlil qilish muhim hisoblanadi.


Soliq ma‘muriyatining barcha asosiy funksiyalari bo‘yicha muvofiqlik risklari “dinamik va bashoratli” bo‘lishi kerak.

Risklar har yili tahlil qilinishi va qayta baholanishi kerak. Olingan saboqlar va ma‘lum bir moliyaviy yilda kelgusi yil uchun xavf va to‘g‘rilash strategiyalarini qayta ko‘rib chiqish va adashmaslikka yordam beradi.

Risk ko‘rsatkichlarini tanlashning dinamik xususiyatiga hukumat qaroriga kiritilgan bir martalik qaror sifatida qaralmaslik kerak. Risklar va hukumat ustuvorliklari yildan-yilga o‘zgarib turadi.

Shu sabablarga ko‘ra, soliq ma‘muriyatining ishini boshqaradigan yillik mashg‘ulot hisoblanadi. Ma‘lumotlar sifati va chuqurligi yaxshilangani sari ko‘rsatkichlar riskining ishonchli ro‘yxati keyinchalik sun‘iy intellekt va mashinaviy o‘rganishdan foydalangan holda bashorat qilish usullari orqali olinishi mumkin.

Mamlakat duch kelishi mumkin bo‘lgan risklarni ko‘ra bilish lozim. Bunda qabul qilingan soliq miqdori (*O‘zbekistonda soliq bo‘shlig‘i qanchalik katta?*), qayta ishlar uchun zarur bo‘lgan resurslar (*manba bormi*), Iqtisodiy va ijtimoiy ta‘sir (*Mamlakatga ta‘siri*), Soliq to‘lovchilarga teng munosabat (*Adolatni kafolatlash*).



**1-rasm. Soliq ma‘muriyatchiligida muammoni yanada kuchaytirishi mumkin bo‘lgan beixtiyor xatti-harakatlar [10]**

### 1 - Potentsial imkoniyatlarni cheklash

#### Xato qilishning iloji bo'lmasin

- Qonunchilik
- Texnik yechimlar

### 2 – Tasodifiy xatolarni kamaytirish

#### Xato qilishni qiyinlashtiring

- Tushunarli qonunchilik va soliq deklaratsiyasi
- Ma'lumot va yo'l-yo'riq

### 3 - Qasddan qilingan xatolarni kamaytirish

#### Xato qilishni xavfli qilib qo'ying

- Aniqlanish ehtimolini oshirish
- Qattiq jazo tartibi

## 2-rasm. Soliq to'lovchining rioya qilish xulq-atvoriga ta'sir qilish, riskni kamaytirish [11]

Shuni ta'kidlash joizki, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bilan yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda soliq risklarini boshqarish ikki tomonlama yondashuv to'g'ri deb hisoblaymiz. Birinchi yondashuv soliq organlari tomonidan soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish orqali, ya'ni tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash mezonlarini amaliyotga joriy qilish orqali soliq risklarni doim kuzatib borish muhim hisoblansa, ikkinchi tomondan yondashuv esa soliq to'lovchilar tomonidan o'z tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish jarayonida soliq va buxgalteriya qonunchiligini to'g'ri qo'llangan holda hisobini yuritish muhim hisoblanadi.

Bu borada esa soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bilan bog'liq soliq organlarida bir qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bu esa soliq to'lovchilarda mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish, tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun, shu jumladan tartibga solish va ma'muriy yukni kamaytirish hisobiga teng raqobat sharoitlarini yaratish, soliq qonunchiligi talablariga rioya qilish tartib-taomillarini avtomatlashtirish va uning tartibini soddalashtirish jarayonlariga guvoh bo'moqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 31-oktyabrda "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6098-son farmonining 3-ilovasiga muvofiq soliq to'lovchilarni soliq to'lamaslik xavfini baholash, kameral, sayyor soliq tekshiruvlari va soliq auditini o'tkazish asosida segmentlash tizimini belgilaydigan soliq nazoratini yuritish bo'yicha segmentlash tizimini ishlab chiqish Yo'l xaritisida tasdiqlangan.

Mazkur Yo'l xaritisidagi topshiriq ijrosi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 7-yanvardagi "Soliq xavfini boshqarish, soliq xavfi mavjud soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash va soliq tekshiruvlarini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"gi 1-son qaror qabul qilinib, "Soliq xavfini boshqarish va yuqori darajadagi tavakkalchilik toifasiga mansub soliq to'lovchilarni (soliq agentlarini) aniqlash tartibi to'g'risida"gi Nizom tasdiqlangan.

Ushbu soliq ma'muriyatchiligidagi o'zgarishlar tadbirkorlik subyektlarining soliq xavfini aniqlash, baholash va soliq nazorati tadbirlariga nomzod sifatida shakllantirish tartibini belgilab berdi.

Soliq organlari tomonidan soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha kiritilgan mazkur yangilik bo'yicha "Soliq xavfini kompleks boshqarish" avtomatlashtirilgan tizimini ishlab chiqishni asosiy vazifa qilib quydi. Shunga ko'ra, Soliq qo'mitasida "Soliq xavfini kompleks boshqarish" avtomatlashtirilgan tizimi Nizom talablaridan kelib chiqib ishlab chiqildi.

Soliq xavflarini kompleks boshqarish – tadbirkorlik subyektlarida mavjud soliq xavflarini mavjud tashqi va ichki manbalar shuningdek, soliq organlarida mavjud soliq xavflarini aniqlaydigan boshqa dasturiy mahsullar yordamida yagona soliq xavfi sifatida jamlash tizimi hisoblanadi.

Mazkur tizimning maqsadi:

- Tadbirkorlik subyektlarida mavjud soliq xavflarini inson omilisiz kompleks aniqlash;
- Tadbirkorlik subyektlarida mavjud soliq xavflarini inson omilisiz baholash;
- Tadbirkorlik subyektlarida mavjud soliq xavflari bo'yicha ularni soliq xavfi darajalariga inson omilisiz ajratish;
- Tadbirkorlik subyektlarida mavjud soliq xavfi darajalari bo'yicha soliq nazorati tadbirlariga nomzod sifatida inson omilisiz shakllantirish.

Ushbu tizim quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

- Tadbirkorlik subyektlarida mavjud soliq xavflarini kompleks aniqlash;
- Tadbirkorlik subyektlarida mavjud soliq xavflarini baholash;
- Tadbirkorlik subyektlarida mavjud soliq xavflari bo'yicha ularni soliq xavfi darajalariga ajratish;
- Tadbirkorlik subyektlarida mavjud soliq xavfi darajalari bo'yicha soliq nazorati tadbirlariga nomzod sifatida shakllantirish.

Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, Soliq xavflarini kompleks boshqarish tizimidan xorijiy davlatlarida ham foydalanib kelinadi. O'z oldiga elektron davlat xizmatini rivojlantirish maqsadini qo'ygan Latviya Respublikasi, Rossiya Federatsiyaisi va bir qator yevropa davlatlari bunga misol bo'la oladi.

Latviya Respublikasida soliq nazorati tadbirlariga nomzodlarni shakllantirishda Soliq xavflarini kompleks boshqarish tizimidan foydalanib kelinmoqda. Bunda, mazkur tizim orqali baholangan korxonalarini nomzod sifatida shakllantirishda tekshirish xuquqiga ega xodimlar soni va ularga berilgan ish yuklamasidan kelib chiqib amalga oshiriladi. Mazkur tizim orqali tadbirkorlik subyektlarini baholash ball tizimida amalga oshiriladi.

Rossiya Federatsiyasida soliq nazorati tadbirlariga nomzodlarni shakllantirishda Soliq xavflarini kompleks boshqarish tizimidan foydalanib kelinmoqda.

Mazkur tizim ball tizimida hamda mezonlar asosida shakllantiriladi.

Asosiy mezonlar bo'lib korxonalar statusi, ro'yxatdan o'tgan sanasi, ustav kapitali, litsenziyalarni mavjudligi, soliq hisobotlarini o'z vaqtida taqdim etilishi, ishchilar soni, moliyaviy ko'rsatgichlari, sudlanganligi, korxonaning soliq organlarining shubxali korxonalar ro'yxatida mavjudligi hisoblanadi.

Soliq xavflarini kompleks boshqarish avtomatlashtirilgan tizimda tadbirkorlik subyektlarida mavjud soliq xavflarini aniqlash olingan ichki va tashqi manba ma'lumotlari, soliq xavflarini aniqlaydigan boshqa dasturiy mahsulotlar ma'lumotlari, soliq xavfi mezonlari asosida aniqlanadi.

Tadbirkorlik subyektlar faoliyatini baholash xavf guruhlari uchun belgilangan umumiy baldan mazkur xavf guruhi tarkibida bo'lgan mezonlar tomonidan aniqlangan soliq xavfi summasi ulushiga mutanosib ravishda berilgan ballardan kelib chiqib belgilaydi.

Soliq xavfi darajasi tadbirkorlik subyektlari tomonidan yig'ilgan ballarning eng yuqoridan pastga qarab soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish huquqi mavjud tekshiruvchi xodimlar soniga mutanosib ravishda belgilaydi.

Tadbirkorlikni yanada qo'llab-quvvatlash, teng raqobat sharoitini yaratish va iste'molchilarning huquqlarini kafolatlash hamda yashirin iqtisodiyotni jilovlashda keng jamoatchilikning faol ishtirokini rag'batlantirishga asoslangan ma'murchilikning yangi institutlarini joriy qilish muhim hisoblanadi.

Bu borada soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish yuzasidan soliqlarni o'z vaqtida to'lab, qonunchilik talablariga amal qilgan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish va ularni rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-yanvarda “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-39-son qarori qabul qilindi. Qaror ijrosi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-yanvarda “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 55-son qarori qabul qilindi.

2024-yil 1-fevraldan boshlab qonunchilik talablariga rioya etgan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini aniqlash va qo'shimcha rag'batlantirishni nazarda tutuvchi Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi joriy etildi.

Mazkur qabul qilingan qaror tadbirkorlik subyektlari uchun teng raqobat sharoitini yaratish va iste'molchilarning huquqlarini kafolatlash hamda yashirin iqtisodiyotni jilovlab, ayrim soyada faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini qonuniy faoliyat yuritish uchun yo'l xaritasi sifatida namoyon bo'ladi.

#### TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING BARQARORLIK REYTINGINI ANIQLASH



**3-rasm. Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash mexanizmi [12]**

Bunda tadbirkorlik subyektlari faoliyati davomida o'zining bozordagi (shaxsiy brend) o'rnini “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi” elektron platformasi orqali kuzatib

yuksaltirishi va hukumat tomonidan qo‘llab quvvatlanishiga erishishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida yashirin iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini ma’naviy dunyo qarashini o‘zgartirishga olib keladi.

## TADBIRKORLARNING BARQARORLIK REYTINGI

TOIFALAR	YUQORI	O‘RTA	QONIQARLI	QUYI
	AAA 100-96 ball	VVV 85-76 ball	SSS 55-51 ball	D 25 ballgacha
	AA 95-91 ball	VV 75-66 ball	SS 50-36 ball	
	A 90-86 ball	V 65-56 ball	S 35-26 ball	

### YUQORI REYTINGLI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI RAG‘BATLANTIRISH

AAA

- Soliq tekshiruvi o‘tkazilmaydi
- QQS summasi o‘rni **tekshiruvlarsiz 1 kunda** qaytarib beriladi
- “Faol tadbirkor”** ko‘krak nishoniga tavsiya etiladi
- Soliqlar bo‘yicha mavjud ortiqcha to‘lov summasi **3 kunda qaytariladi** (QQS bundan mustasno)
- Tovar import qilishda va tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda to‘lanadigan QQSni o‘zaro hisobga oladi

AA  
A

**4-rasm. Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi toifalari va yuqori reytingli tadbirkorlik subyektlarini rag‘batlantirish mexanizmi [13]**

Elektron platformada tadbirkorlik subyektlari reytingini shakllantirish soliq hisobotlari va soliq organlarida mavjud tashqi manba ma’lumotlari asosida axborot tizimlari orqali inson omilisiz amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik subyektlarining reyting ballari jami 23 ta mezonlar orqali 100 ballik sistemada hisoblab chiqariladi.

Bunda:

Birinchi, tadbirkorlik subyektlarining faoliyatiga daxldor 10 ta umumiy mezonlar bo‘yicha maksimal 100 gacha ball beriladi;

Ikkinchi, 4 ta rag‘batlantiruvchi mezonlar bo‘yicha 45 balgacha qo‘shimcha ballar beriladi. Bu degani tadbirkor 100 dan ham ortiq ball to‘plashi mumkin;

Uchinchi, shu bilan birga tadbirkorlik subyektlari tomonidan yo‘l qo‘yilgan qonun buzilish holatlari va ularning mansabdor shaxslarining “ishonchsizlik” harakatlari uchun yuqoridagi mezonlar asosida to‘plangan ballar 9 ta kamaytiruvchi mezonlar bo‘yicha 60 balgacha kamaytiriladi.

E‘tiborlisi shundaki, ushbu mezonlarni ishlab chiqishda tadbirkorlik subyektining o‘tgan yillar davomida qonunchilik talablariga rioya etganligi hamda faoliyati davomida muntazam rivojlanib borganligi inobatga olingan.

Reytinga kiritilgan mezonlarning quyidagi asosiy yo‘nalishlarini aytib o‘tishim mumkin:

birinchi, tadbirkorlik subyektining uzoq muddatdan buyon muntazam faoliyat yuritib kelayotganligi;

bunda, 5 yildan ortiq faoliyat yuritib kelayotgan subyektlar yaxshi ballga ega bo‘ladi. ikkinchi, tadbirkorlik subyektining rentabellik darajasi (EBITA) yuqoriligi; uchinchi, soliq hisobotlarini o‘z vaqtida taqdim etishi; to‘rtinchi, soliqlarni o‘z vaqtida ixtiyoriy to‘lashi; beshinchi, xodimlarga beriladigan ish haqi jamg‘armasining yuqoriligi, yer maydonlari va ko‘chmas mulk obyektlari yoki ijara shartnomasi mavjudligi.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi aniqlash elektron platformasi onlayn va real vaqt rejimida ishlaydi. Reytingni aniqlash bo‘yicha bajarilmagan mezonlar tadbirkorlik subyektlari tomonidan bajarilgan zahotiy oq tegishli ballar qo‘shilib boriladi yoki aksincha majburiyatlarni bajarish muddati o‘tgan zahoti ballar chegiriladi.

Masalan, Soliq hisobotlarining belgilangan muddatlarda taqdim etilishi, mazkur mezon bo‘yicha ball soliq turlari bo‘yicha soliq hisobotlarining belgilangan muddatdan kech va (yoki) qayta hisobot taqdim etilganlik holatlari bo‘yicha aniqlanadi.

Soliq turlari bo‘yicha hisobotlarni kechiktirmagan bo‘lsa – 10 ball beriladi (hisobot kechiktirib taqdim etgan bo‘lsa – ball berilmaydi).

Mazkur mezon bo‘yicha baholashda kalendar oyida hisobot topshirish muddati kelgan barcha soliq turlari hisobga olinadi.

Barqarorlik reytingi 3 guruhga bo‘linadi.

1-guruh yuqori ball AAA, AA, A

2-guruh o‘rta ball VVV, VV, V

3-guruh quyi va eng quyi ball SSS, SS, S va D

Yuqori ballga ega tadbirkorlik subyektlari uchun:

“AAA” toifadagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatida soliq tekshiruvlari o‘tkazilmaydi (jinoiy ishlar doirasida o‘tkaziladigan tekshiruvlar bundan mustasno), shuningdek, ushbu tadbirkorlik subyektlariga qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplash (qaytarish) bir kun muddatda tekshiruvlarsiz amalga oshiriladi (amalda 7 kun muddatda qaytarib berilmoqda);

4 va 5-toifadagi tumanlarda faoliyat yuritayotgan “AA” va undan yuqori toifadagi tadbirkorlik subyektlariga bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotilgan davlat aktivlari va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari bo‘yicha kamida 15 foiz miqdoridagi dastlabki to‘lov bir yo‘la amalga oshirilganda qolgan summaga Markaziy bankning asosiy stavkasi miqdorida yillik foizlar hisoblanmaydi hamda bo‘lib-bo‘lib to‘lash muddati 5 yilgacha uzaytiriladi;

“A” va undan yuqori toifadagi tadbirkorlik subyektlariga:

soliqlar bo‘yicha (qo‘shilgan qiymat solig‘i bundan mustasno) mavjud ortiqcha to‘lov summasini qaytarish uch kun muddatda amalga oshiriladi (amalda 15 kunda qaytarilmoqda);

tovarlarni import qilishda va tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda to‘lanadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summalarini o‘zaro hisobga olish tartibi tatbiq etiladi.

Ushbu reyting tizimi barcha tadbirkorlarimizni qonunchilik talablariga rioya etishga undab, bozor tamoyillari asosida narx shakllanishi tizimini samarali amalga oshirish va insofli soliq to‘lovchilar va iste‘molchilarning huquqlarini himoya qilish, shuningdek, yashirin iqtisodiyotni kamaytirishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyati uchun teng sharoitlar yaratish va aholi ishsizligi kamaytirib, soliq tushumlarini oshirishga olib keladi.

Barqarorlik reytingini ishlab chiqish bo‘yicha xorijiy tajriba o‘rganilgan. Masalan, Qozog‘istonda Ishonchli hamkorlar reestri yuritiladi. Reestrni yuritilishidan ko‘zlangan maqsad:

– Mahalliy va xorijiy tadbirkorlik subyektlarini mahalliy tadbirkorlik subyektlari orasidan hamkorlarni tanlash uchun zarur ma‘lumotlar bilan ta‘minlash orqali tadbirkorlik faoliyatini, shu jumladan tashqi iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish;

– Ishlab chiqarilayotgan mahalliy mahsulotlar, ishlar va xizmatlarning raqobatdoshligini oshirishga ko‘maklashish;

– Ichki bozorda va xorijda mahalliy tadbirkorlik subyektlariga ishonchni oshirish.

– Reestrga to‘liq va ishonchli ma‘lumotlarni taqdim etgan hamda mazkur Nizomda belgilangan mezonlarga javob beradigan barcha mulkchilik shaklidagi va tashkiliy-huquqiy shakldagi tadbirkorlik subyektlari kiritiladi.

Shuningdek, tadbirkorlik subyektlarini Reestrga kiritish mezonlari mazkur Nizomning ishonchlilik darajasini baholash metodikasi bilan belgilanadi.

Rossiya Federatsiyasida “Iqtisodiy va moliyaviy imkoniyatlari ishonchli bo‘lgan tadbirkorlik subyektlarining nodavlat reestri” yuritiladi.

Reestrga kiritilish shartlari:

– o‘z faoliyatini so‘nggi 3 yildan beri davom ettirayotgan bo‘lish;

– tashkilot haqida ishonchli ma‘lumotlarni taqdim etish;

– qayta tashkil etish, tugatish va bankrotlik holatida bo‘lmaslik;

– soliqlar, yig‘imlar, va boshqa to‘lovlardan qarzdorlikni bo‘lmasligi;

– insofsiz yetkazib beruvchilar hamda pudratchilar reestrda bo‘lmaslik;

– yil yakuniga ko‘ra, tashkilotning moliyaviy ahvoli “SSS – qoniqarsiz” holatda bo‘lmasligi;

– reestrga kiritilish uchun to‘lanadigan bir martalik to‘lovni to‘lagan bo‘lishi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini 2024-yil 1-fevraldan joriy qilinishi natijasida soliqlarni o‘z vaqtida to‘lab, qonunchilik talablariga amal qilgan holda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish va ularni rag‘batlantirish. Bu borada soliq organlari tomonidan soliq risklarini boshqarish orqali yashirin iqtisodiyot ko‘lamini keskin qisqartirish yuzasidan aniq yo‘nalishlar belgilab olinishiga zamin yaratadi. Muallif fikricha, tadbirkorlarning barqarorlik reytingini joriy qilish natijasida soliq organlari ish faoliyatida soliq risklarini boshqarishning ish samaradorligi oshadi. Bu esa o‘z navbatida iqtisodiyotdagi yashirin aylanmalarga qarshi kurashishda aniq yo‘nalishlarni belgilash imkonini beradi. Joriy qilingan 23 ta mezon mamlakatda sog‘lom raqobat va xususiy biznesni rivojlantirishda keng imkoniyatlar yaratib, yashirin iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarini soyadan chiqishiga va qonuniy faoliyat yuritishiga imkoniyatlar yaratadi. Mamlakatda iqtisodiy sharoitlarni yaxshilash va shaffoflik, halollik va ko‘nikmalarga asoslangan tadbirkorlikni rag‘batlantirish orqali hukumat yashirin iqtisodiyotni kamaytirish uchun qulay muhit yaratishi mumkin.

Shu o‘rinda mamlakatimizda yashirin iqtisodiyotni kamaytirish va bu borada soliq risklarini to‘g‘ri baholagan holda soliq ma‘muriyatchiligi takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflar o‘zining ijobiy samarasini beradi deb hisoblaymiz:

- Jismoniy shaxslarni ijtimoiy tarmoqlardagi (Youtube, Instagram, Facebook, Telegramm va boshqalar) faoliyatidan olgan daromadlarni deklaratsiya asosida soliqqa tortish tizimini joriy qilish;
- Soliq agentlari tomonidan soliq hisobotlarida ishchilar soni yoki ish haqi summasini kamaytirib ko‘rsatish holatlari aniqlanganda javobgarlik masalasini oshirish;
- yuridik shaxslar tomonidan uy-joy va ko‘chmas mulk obyektlarini realizatsiya qilish, aholi bilan tuziladigan ulushbay qurilishda ishtirok etish yoki investitsiya hissasi to‘g‘risidagi shartnomalarni soliq organlarining axborot tizimidan majburiy ro‘yxatdan o‘tkazish tizimini joriy qilish.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. <https://kun.uz/news/2024/01/18/yashirin-iqtisodiyotga-qarshi-kurashish-boyicha-davlat-siyosatining-ustuvor-yonalishlari-belgilandi>
2. <https://soliq.uz/press-services/news/show/dsq-raisi-shubhali-korxonalar-halol-tadbirkorning-haqiqiy-dushmani?lang=uz>.
3. F.Schneider, D.Enste “Hiding in the shadows the growth of the underground economy”. International Monetary Fund March 2002
4. K.F.Becker “The Informal Economy” march 2004, Shvedskiy Mejdunarodnyy agentstvo sotrudnichestva razvitiya SE-105 25 Stokgolma Shvetsiya.
5. <http://newasp.omskreg.ru/bekryash/ch1p10.htm>.
6. I.Demenenko, S.Ogorodnikova “Vliyaniye tenevoy ekonomiki na razvitiye obshchestva” Belgrad, 2018.
7. A.Vahobov, A.Jo‘rayev. Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik. – T.: “Sharq” nashriyoti – 2009. 268-bet.
8. A.Vahobov, A.Jo‘rayev. Soliqlar va soliqqa tortish: Darslik. – T.: “Sharq” nashriyoti – 2009. 269-bet.
9. <https://www.complyiq.io/navigating-tax-risks/>.
10. Soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
11. Soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
12. Soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.
13. Soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.